



NAVOIY VILOYATI KARMANA TUMANI HOKIMINING QARORI

2026-yil 9-fevral

25-5-71-Q/26

Karmana tuman hokimiligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 2-fevral kunidagi “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining muddatli harbiy xizmatga navbatdagi chaqiruvi hamda belgilangan xizmat muddatini o‘tab bo‘lgan muddatli harbiy xizmatchilarni Qurolli Kuchlar rezerviga bo‘shatish to‘g‘risida”gi PQ-38-sonli va shu mazmundagi viloyat hokimining 2026-yil 7-fevraldagi 29-5-0-Q/26-sonli qarorlarining ijrosini ta’minlash to‘g‘risida.

Tumanda fuqarolarni muddatli harbiy xizmatga navbatdagi chaqiruvi hamda belgilangan xizmat muddatlarini o‘tab bo‘lgan harbiy xizmatchilarni Qurolli Kuchlar rezerviga bo‘shatishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 2-fevral kunidagi “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining muddatli harbiy xizmatga navbatdagi chaqiruvi hamda belgilangan xizmat muddatini o‘tab bo‘lgan muddatli harbiy xizmatchilarni Qurolli Kuchlar rezerviga bo‘shatish to‘g‘risida”gi PQ-38-sonli va shu mazmundagi viloyat hokimining 2026-yil 7-fevraldagi 29-5-0-Q/26-sonli qarorlari rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan quyidagilar: chaqirish muddatini kechiktirish va chaqirishdan ozod etilish huquqiga ega bo‘lmagan O‘zbekiston Respublikasining chaqiruv yoshidagi fuqarolari 2026-yilning mart-aprel oylarida muddatli harbiy xizmatga chaqirilishi;

harbiy xizmatga yaroqli, shu jumladan, cheklovlar bilan yaroqli bo‘lgan hamda chaqirilish muddatini kechiktirish va chaqirilishdan ozod etilish huquqiga ega bo‘lmagan, biroq ushbu chaqiruv davrida Qurolli Kuchlar safiga chaqirilmaydigan fuqarolar safarbarlik chaqiruvi rezervi xizmatiga olinishi;

muddatli harbiy xizmatning belgilangan muddatini o‘tab bo‘lgan harbiy xizmatchilar 2026-yilning mart-aprel oylarida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari rezerviga bo‘shatilishi belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-mart kunidagi “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini harbiy xizmatga chaqirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4630-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Fuqarolarni muddatli harbiy va muqobil xizmatlarga chaqirish, safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatga olish bo‘yicha komissiyalar faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risida”gi nizom hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida tinchlik va urush davrida tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi PQ-4076-sonli qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida tinchlik va urush davrida tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risidagi nizom talablariga asosan quyidagi komissiyalar va rejalar:

tuman Mudofaa ishlari bo‘limi huzuridagi butlash komissiyasi (keyingi o‘rinlarda – butlash komissiyasi deb ataladi) tarkibi 1-ilovaga;

tuman Mudofaa ishlari bo‘limi huzuridagi hududiy komissiya (keyingi o‘rinlarda–hududiy komissiya deb ataladi) tarkibi 2-ilovaga;

tuman Mudofaa ishlari bo‘limi huzuridagi hududiy tibbiy komissiya (keyingi o‘rinlarda–hududiy tibbiy komissiya deb ataladi) tarkibi 3-ilovaga;

2026 yil mart-aprel oylarida tuman Mudofaa ishlari bo‘limi huzuridagi hududiy tibbiy komissiya tuman tibbiyot birlashmasi tomonidan jalb etiladigan tibbiy xodimlar zaxira tarkibi (keyingi o‘rinlarda zaxiradagi hududiy tibbiy komissiya deb ataladi) tarkibi 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4.Tuman hokimining o‘rinbosari (D.Nazarov), tuman Mudofaa ishlari bo‘limi (Sh.Nasullayevga)ga:

Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda yurtimizdagi tinchlik va osoyishtalik, amalga oshirilayotgan islohatlar, shu jumladan harbiy sohaga oid me‘yoriy hujjatlar mazmun-mohiyatini muddatli harbiy xizmatga chaqirilayotgan fuqarolar ongiga singdirish bo‘yicha tegishli targ‘ibot tadbirlarini amalga oshirilishini ta‘minlansin;

5.Tuman Mudofaa ishlari bo‘limi (Sh.Nasullayevga)ga:

tumanda chaqiruv yoshidagi fuqarolarni 2026-yil mart-aprel oylarida muddatli harbiy xizmatga chaqirish va safarbarlik chaqiruvi rezervi xizmatiga olish ishlarini yuqori saviyada tashkil etilishini;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 14-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini muddatli harbiy xizmatga tantanali kuzatish va rezervga bo‘shatilgan muddatli harbiy xizmatchilarni kutib olish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 10-sonli qaroridagi vazifalar ijrosini ta‘minlanishini;

fuqarolarni muddatli harbiy xizmatga yig‘ish va jo‘natish tadbirlarini yuqori saviyada tashkillashtirish maqsadida bo‘limdan mas‘ul shaxslarni tuman hududlariga biriktirish;

muddatli harbiy xizmatga chaqiriladigan fuqarolarni yig‘ish, ularni harbiy qismlarga jo‘natish, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari zaxirasiga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarni kutib olish marosimlarini yuqori saviyada tashkil etishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va uning bajarilishini ta‘minlash;

tegishli bo'lim, tashkilot, mutassaddi idoralar va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan, safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatga o'tkazilgan, muddatli va safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatni o'tab, Qurolli Kuchlar rezerviga bo'shatilgan harbiy xizmatchilar o'rtasida qonun hujjatlarida belgilangan imtiyozlar haqida tushuntirish ishlarini tashkil etsin.

6. Tuman Tibbiyot birlashmasi (O.Parmonov), tuman hokimligi bilan hamkorlikda:

fuqarolarni tibbiy ko'rikdan o'tkazishda bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida tinchlik va urush davrida tibbiy ko'rikdan o'tkazish to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi PQ-4076-sonli qaroridagi vazifalar ijrosi ta'minlansin;

7. Tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi (U.Hasanov), tuman hokimliklari bilan birgalikda:

muddatli harbiy xizmatni o'tagan fuqarolarni ularning mutaxassisliklarini inobatga olgan holda, shu jumladan mehnat yarmarkalarini o'tkazish orqali qonunchilikda o'rnatilgan tartibda ishga joylashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqsin va amalga oshirsin;

muddatli harbiy xizmatni va safarbarlik chaqiruvida rezervidagi xizmatni o'tagan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish istagi bo'lgan fuqarolarga o'rnatilgan tartibda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish, va ularni o'qitishni tashkil etish bo'yicha axborot va maslahatlar berishni tashkillashtirilsin.

8. Tuman Ichki ishlar bo'limi (A.Ikromov)ga:

tuman chaqiruv punktida, shuningdek muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan harbiy xizmatchilarni harbiy qismlarga jo'natish joylarida jamoat tartibini saqlash va hududni qo'riqlash uchun xodimlar ajratsin;

yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash maqsadida muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan harbiy xizmatchilarni viloyat yig'uv punktiga jo'natish joylariga olib boradigan yo'nalishlarni oldindan aniqlash, ajratilgan avtotransport vositalarini o'z vaqtida texnik ko'rikdan o'tkazish, xaydovchilarga yo'l harakati qoidalariga rioya etishga yo'riqnoma bo'yicha tushuntirish berish, texnik jihatdan nosoz avtotransport vositalaridan foydalanishga yo'l qo'ymaslik va chaqiriluvchilarga xizmat ko'rsatadigan avtotransport vositalarni yo'l harakati xavfsizligi bo'limi kuzatuvida harakatlanishini ta'minlash choralarini ko'rishda;

belgilangan vaqtda komissiyalardan o'tish uchun chaqiruv punktlariga kelmagan chaqiriluvchilarni qidirib topish va Mudofaa ishlari bo'limiga yetkazib kelishda amaliy yordam ko'rsatsin.

9. Ma'naviyat va ma'rifat tuman bo'linmasi (A.Rizayev), tuman Yoshlar ishlari bo'limi (B.Bekov), tuman Mudofaa ishlari bo'limi (Sh.Nasrullayev) bilan birgalikda:

o'tgan yillar mobaynida qabul qilingan harbiy sohaga oid qonun va qonun osti hujjatlar hamda bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar mazmun-mohiyati, bunyodkorlik ishlari, tinchlik va osoyishtalikning qadr-qimmatini to'g'risida targ'ibot

–tashviqot ishlarini olib borish uchun tegishli davlat va jamoat tashkilotlari uchun uslubiy tavsiyalar tayyorlab, ularni joylarga yetkazsin.

10.Tuman SEO va JS (A.Sodiqov)ga:

Fuqarolarni muddatli harbiy xizmatga jo‘natishda harbiy va hududiy tibbiy komissiyalar faoliyatini amalga oshirilishida sanitariya-epidemiologik holatlarni nazorat qilish hamda tuman chaqiruv punktida karantin qoidalariga rioya qilinishini ta‘minlansin.

11.“Uztelekom” AK Karmana tuman filialiga:

2026-yilning chaqiruvini o‘z vaqtida o‘tkazishda tuman chaqiruv punktini telefon aloqasi bilan uzluksiz ishlashini ta‘minlansin.

12. “Karmanagaz” filiali, tuman elektr ta‘minoti korxonasi, tuman Suv ta‘minoti bo‘limiga:

2026-yilgi chaqiruv mavsumida va doimiy tuman chaqiruv punktini tabiiy gaz bilan bir me‘yorda ta‘minlanishi ichimlik suvi hamda elektr-energiyasining uzluksiz yetkazib berilishini nazoratga olsin.

13.Tuman hokimligi axborot xizmati hamda “Karmana ovozi” gazetasiga:

Yoshlarni Qurolli Kuchlarda xizmat qilishga tayyorlanib borishini, fuqarolarni muddatli harbiy xizmatga chaqirilishning amalga oshirilishini, chaqiruv komissiyalar ishini, rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarni kutib olish bo‘yicha tashkil etiladigan tadbirlarni ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritish ishlarini amalga oshirsin.

14.Ushbu qarorning ijrosi nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari D.Nazarov, tuman Mudofaa ishlari bo‘limi boshlig‘i Sh.Nasrullayev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



Sh.Boltayev

Karmana tumani hokimining
2026-yil 9-fevraldagi
25-5-71-Q/26-son qaroriga
1-ilova

**Tuman butlash komissiyasining
TARKIBI**

T/r	F.I.SH	Ish joy va lavozimi	Tayinlanadigan komissiya tarkibidagi lavozimi
1.	podpolkovnik Qurbonov Elyor Ortikovich	36184 harbiy qism komandirining birinchi o‘rinbosari – shtab boshlig‘i	Butlash komissiyasi raisi
2.	mayor Kushanov Murod Zokirovich	9263 harbiy qism vakili Chegara qo‘shinlari	Butlash komissiyasi a‘zosi
3.	kapitan Nuritdinov Feruzjon Hamid o‘g‘li	Karmana tumani Favqulodda vaziyatlar bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari	Butlash komissiyasi a‘zosi
4.	katta leytenat Haydarov Rasul Ibodullo o‘g‘li	Karmana tuman IIB JXX JTBS boshlig‘i	Butlash komissiyasi a‘zosi
5.	Podpolkovnik Miteyev Oybek Hamzayevich	Navoiy viloyati MG boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i	Butlash komissiyasi a‘zosi
6.	QK xizmatchisi Mirzayev Nodir Baxtiyorovich	Karman tumani MIB chaqiruv bo‘linmasi boshlig‘i yordamchisi	Butlash komissiyasi kotibi

Karmana tumani hokimining
2026-yil 9-fevraldagi
25-5-71-Q/26-son qaroriga
2-ilova

**Tuman hududiy komissiyasining
TARKIBI**

T/r	F.I.SH	Ish joy va lavozimi	Tayinlanadigan komissiya tarkibidagi lavozimi
1.	Nazarov Dilshod Sevdiyarovich	Tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy- ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari	Hududiy komissiya raisi
2.	Podolkovnik Nasullayev Shavkat Elnazarovich	Tuman Mudofaa ishlari bo'limi boshlig'i	Hududiy komissiya raisi o'rinbosari
3.	Kapitan Ergashov Akmal Doniyevich	Tuman IIB JXX XPB boshlig'i	Hududiy komissiya a'zosi
4.	Yusupov Fuzoyiddin Dushanovich	O'zbekiston mahallalar uyushmasi Karman tumani bo'limi boshlig'i	Hududiy komissiya a'zosi
5.	Jurayev Kosimjon Nosirovich	Tuman ko'p tarmoqli markaziy poliklinika terapevt vrach	Hududiy komissiya bosh shifokori
6.	Xalimova Gulandon Oripovna	Tuman ko'p tarmoqli markaziy poliklinika hamshirasi	Hududiy komissiya kotibasi

Karmana tumani hokimining
2026-yil 9-fevraldagi
25-5-71-Q/26-son qaroriga
3-ilova

Tuman hududiy tibbiy komissiyasi
TARKIBI

T/r	Vrach mutaxassislarning F.I.SH	Mutaxassisligi
1.	K.Jurayev	Tuman tibbiyot birlashmasi ko'p tarmoqli markaziy poliklinika tibbiy komissiyasi katta shifokori
2.	M.Jumayev	Tuman tibbiyot birlashmasi ko'p tarmoqli markaziy poliklinika terapevt vrach
3.	M.Abdullayeva	Karmana tuman ko'p tarmoqli markaziy poliklenika vrach ovtolmolog
4.	F.Sharipova	Karmana tuman ko'p tarmoqli markaziy poliklenika vrach nevrpotolog
5.	L.Ochilov	Karmana tuman ko'p tarmoqli markaziy poliklinika vrach psixiatr
6.	F.Karimov	Karmana tuman ko'p tarmoqli markaziy poliklinika vrach stomatolog
7.	J.Abdullayev	Viloyat teri –tanosil kasalliklari vrach dermatolog
8.	I.Bozorov	Karmana tuman ko'p tarmoqli markaziy poliklinika vrach otolaringolog
9.	T.Sayimov	Karmana tuman ko'p tarmoqli markaziy poliklenika vrach jarrox
10.	F.Raxmonov	Karmana tuman ko'p tarmoqli markaziy poliklinika vrach rengolog
11.	I.Muxtorov	Karmana tuman ko'p tarmoqli markaziy poliklinika vrach endoskopist
12.	A.Normamatov	Karmana tuman ko'p tarmoqli markaziy poliklinika vrach UTT
13.	Sh.Shaxriyeva	Karmana tuman ko'p tarmoqli markaziy poliklinika vrach EKG
14.	O.Shaxzod	Karmana tuman ko'p tarmoqli markaziy poliklinika vrach laborant
15.	D.Kalandarova	Karmana tuman ko'p tarmoqli markaziy poliklinika travmatolog xamshira
16.	G.Xalimova	Karmana tuman ko'p tarmoqli markaziy poliklinika

		pulmanolog xamshira
17.	Z.Xushvaqtova	Karmana tuman ko'p tarmoqli markaziy poliklinika antropometrya xonasi xamshira
18.	G.Suyunova	Karmana tuman ko'p tarmoqli markaziy poliklinika travmatolog xamshira
19.	X.Safarova	Karmana tuman ko'p tarmoqli markaziy poliklinika stamatolog xamshira
20.	Y.Qalandarova	Karmana tuman ko'p tarmoqli markaziy poliklinika travmatolog xamshira

Karmana tumani hokimining
2026-yil 9-fevraldagi
25-5-71-Q/26-son qaroriga
4-ilova

**Tuman hududiy zaxiradagi tibbiy komissiyasining
TARKIBI**

T/r	F.I.SH	Ish joyi va lavozimi
1.	X.Jalilov	Karmana tuman ko'p tarmoqli markaziy poliklinika vrach kardiolog ma'sul vrach
2.	M.Rajabov	Karmana tuman ko'p tarmoqli markaziy poliklinika vrach oftolmolog
3.	S.Haqnazarov	Karmana tuman ko'p tarmoqli markaziy poliklinika vrach nevropatolog
4.	T.Suyarov	Karmana tuman ko'p tarmoqli markaziy poliklinika vrach psixiatr
5.	E.Xamdamova	Karmana tuman ko'p tarmoqli markaziy poliklinika vrach stamotolog
6.	U.Bozorov	Viloyat teri-tanosil kasalliklari Karmana tuman ko'p tarmoqli markaziy poliklinika vrach dermatolog
7.	K.G'aybullayeva	Karmana tuman ko'p tarmoqli markaziy poliklinika vrach otolaringolog
8.	Sh.Bozorov	Karmana tuman ko'p tarmoqli markaziy poliklinika vrach urolog
9.	J.Bozorov	Karmana tuman ko'p tarmoqli markaziy poliklinika vrach rentgenolog
10.	X.Jalilov	Karmana tuman ko'p tarmoqli markaziy poliklinika vrach terapevt
11.	N.Tagayev	Karmana tuman ko'p tarmoqli markaziy poliklinika vrach endoskopist
12.	A.Normamatov	Karmana tuman ko'p tarmoqli markaziy poliklinika vrach UTT
13.	G.Suyunova	Karmana tuman ko'p tarmoqli markaziy poliklinika terapevt xamshira
14.	I.Norova	Karmana tuman ko'p tarmoqli markaziy poliklinika vrach laborant
15.	D.Qalandarova	Karmana tuman ko'p tarmoqli markaziy poliklinika hamshira
16.	D.Raximova	Karmana tuman ko'p tarmoqli markaziy poliklinika allergolog xamshira
17.	M.Sattorova	Karmana tuman ko'p tarmoqli markaziy poliklinika allergolog xamshira

18.	N.Baratova	Karmana tuman ko'p tarmoqli markaziy poliklenika gematolog xamshira
-----	------------	--

Karmana tumani hokimining
2026-yil 9-fevraldagi
25-5-71-Q/26-son qaroriga
5-ilova

**Tuman Mudofaa ishlari bo'limiga 2026 yilgi chaqiruviga tayyorgarlik
ishlarini olib borish texnik xodimlar ajratuvchi tashkilot va muassasalar
RO'YXATI**

№	Korxona tashkilot va muassasalar	Xodimlar soni
1.	“Karmanatumangaz” filiali	2
2.	Navoiy hududiy elektr tarmoqlari	2
3.	Navoiy issiqlik elektr stansiyasi	2